

Baxtiyarov Javohirbek Jaxongirovich
O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
3-kurs talabasi

Annotatsiya: Bugungi globallashayotgan davrda insoniyatning diqqat markazidagi muammo ekologik hayot bo'lib bormoqda. Buning oldini olish va zarur chora tadbirlar ko'rish asosiy maqsadimizdir.

Tayanch so'zlar: Ekologiya, tabiat, atrof-muhit, daraxtlar, suv, yer, tuproq, davlat ekologiya qo'mitasi, ekopartiya

Abstract: In today's globalized era, the problem in the center of attention of humanity is ecological life. Our main goal is to prevent this and take necessary measures.

Key words: Ecology, nature, environment, trees, water, land, soil, state ecological committee, ecoparty.

“Ekologiya” terminini fanga kiritishga bo'lgan ilk qadam Nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan qo'yildi. E.Gekkel bu ishni 1866 – yilda bajargan.

O'rta asrlar davomida insoniyat juda ko'p urushlar va qurg'oqchiliklar qurboni bo'lishdi, buning asosiy sababi yer va suv talashishdir, XX asrning 70-yillariga kelib fikrlar o'zgara boshladi. Hozirgi kunga kelib kimdan so'ramang birinchi bo'lib hayoliga kelgan narsa bu ekologik muammolardir. Buni sababi insoniyatni tabiatga aralashushi me'yordan oshib ketganligidadir. Bu dunyoda har bir bitta narsani me'yor yaxshi. Bunga amal qilish zarurligi deyarli barchani qiziqtirishi kerak. Hattoki inson uchun zarur bo'lgan kislarodning ham me'yori yaxshi, chunki u kamayib ketsa atmosferada gazlar miqdori oshib ketishiga olib keladi. Aksincha uning miqdori oshib ketsa yer sirtidagi harorat maksimal darajaga ko'tariladi, sodda qilib aytganda yer mikroto'lqinli pechga aylanadi, odamlar esa uning ichida qovurilayotgan bodirog'larga. Bu esa yakun, odamzod uchun intiho hisoblanadi. Bu bir misol xolos, bunday misollardan yana ko'plab keltirish mumkin. Ekologiya muammosi hozirgi kunda global muammoga aylanib ulgurganligiga ko'p bo'ldi. Global isish, Antarktida muzlarining erishi, buning oqibatida suv toshqinlarini ko'payishi, azon qatlamining yemirilishi, ko'plab yong'inlar, ichimlik suv zaxirasini tugab borishi va hohokazo³⁰. Bu muammolar insoniyatga tobora ko'proq havf sola boshladi. Buning yechimlarini esa hali hamon kutmoqdamiz. Biz bunga shunchaki ko'z yuma olmaymiz. Albatta ko'plab olimlar bu muammolarni hal etishga urinmoqda, ba'zilarini deyarli hal etishga ham erishishdi. Ammo bu yetarli emas. bu shunchaki muammoni vaqtinchalik

³⁰ Geynrix Gekkel. Ekologianing entogenezi – 1983. B-78

muzlatib qo'yishdek gap. Hammasini o'z holiga qaytarish uchun insoniyat o'z taraqqiyotidan voz kechishi kerak. Bir qarashda bu ilojsizdek ko'rindi, biroq hammasini o'z holiga qaytarishning iloji bor va buni qilsa bo'ladi. Tabiatni asrash har birimizni burchimizdir. Insonlarni lol qoldiradigan uni qalbini tub-tubidan o'rin egallagan go'zallik ham tabiat mo'jisidir. Odamlarni chinakamiga hayratga sola oladigan va tuyg'ularini jo'shqinlantiradigan mana shu tuyg'ularni kuchaytiradigan ham tabiatdir. Insoniyat tabiat oldida ojizligini barcha anglab yetgan bo'lsa kerak. Garchi vaqt kutib turmasada hammasini tog'rilash uchun insoniyat ixtiyorida yetarlicha vaqt bor deb hisoblayman.

Yuqoridagi muammolarni hal etish va mamlakatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, qulay ekologik holatni barqaror saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash hamda sohada sodir etilayotgan huquqbazarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish maqsadida 31.12.2021 yildagi PQ-76-son qarori imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barcha tarmoqlari, shu jumladan agrosanoat tizimi uchun muhim strategik tabiiy resurs hisoblanadi. Respublikakimzda 1,3 mln ga yaqin sug'oriladigan yerlar bo'lib, unda asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi. O'zbekiston aholisini ichimlik suviga bo'lgan extiyojlarining 60% miqdori yer osti suvlar orqali qondiriladi. Markaziy Osiyo suv hajmi cheklangan mintaqalardan biri sifatida asosiy suv manbai Amudaryo, Sirdaryo va boshqa suv havzalaridan iboratdir. Ko'rishimiz mumkinki ekologik hayotning asoslaridan birini suv tashkil etadi.

O'zbekiston ekologik harakati tashkil etilgach, mamlakatimizda atrof-muhitni asrab-avaylash, ekologik muammolarni bartaraf etish va bu jarayonga ayniqsa, jamoatchilik e'tiborini qaratish imkonini yanada oshdi. Aytish kerakki, Harakat tomonidan jamoatchilik diqqat – e'tiborini tortadigan qator masalalar kun tartibiga qo'yilmoqda. Orol dengizini asrash masalasi – ana shunday muammolardan biridir.

Orol inqirozi insoniyat tarixida eng yirik ekologik hamda gumanitar foyialardan hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda, hozir mazkur havza atrofida istiqomat qiluvchi qariyb 35 millionga yaqin aholi bundan aziyat chekmoqda. Mana, 20 – 25 yillardiki, Orol ko'z o'ngimizda qurib borayapti. So'nggi 40 – 45 yil ichida Orol dengizi sathi 22 metrga pasayib, maydoni 3,8 martaga qisqardi. Suvning sho'rligi ortib, Orol «o'lik dengiz»ga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida qayd etilganidek, butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi katta ekologik xavfga duch keldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z – o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan

qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Orol dengizi falokati ham jahon miqyosidagi ulkan muammodir. U dunyodagi ko'plab mamlakatlar aholisi manfaatlariga daxldor bo'lib, yangi avlod uchun ham noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.¹

Ommaviy axborot vositalarida, ko'plab olim va mutaxassislarning ilmiy monografiyalarida ushbu inqiroz bilan bog'liq taddiqot natijalari, uning kelib chiqish sabablari yetarlicha tahlil qilib berilgan. Ularni o'qib, Orol dengizi qurishining havza tevaragidagi aholi sog'ligi, mintaqqa iqtisodiyotiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Suv sifatining pasayishi mintaqqa aholisi salomatligiga jiddiy ta'sir etganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Qurigan Orol tubidan havoga ko'tarilgan tuz hamda boshqa

inson salomatligi uchun zararli moddalar muhitni ifloslamoqda. Hozir Orol dengizi havzasi sug'oriladigan yerlarining 60 % qismi sho'rlangan.

Hududiy davlat sanitariya – epidemiologik nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan sanitary – gigiyenik tekshiruvlar ham ichimlik suv tarkibida yuqori darajali kimyoiy moddalar to'plangani, ular bir qator kasalliklarni keltirib chiqarish xavfi mavjudligini ko'rsatmoqda. Respublikamizda so'nggi yillarda Orol muammosini hal qilish bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ayollar va bolalar sog'ligini himoya qilish» dasturini amalga oshirish» loyihasi borasida Xorazm viloyatida ko'p tarmoqli bolalar tibbiy markazlarini zamonaviy tibbiy uskunalar, tashxis apparatlari bilan ta'minlash masalasi ko'rib chiqildi. Sil kasalligiga qarshi kurashish dasturini amalga oshirishga doir loyiha esa mazkur xastalikka chalinish ehtimoli bor bo'lgan odamlarni tashxis yo'li bilan aniqlab, davolashni yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, «Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarining uzoq hududlarida sil kasalligi hamda onkologik xastaliklarning oldini olish chora-tadbirlarini qo'llash» loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Ushbu loyiha bo'yicha ishlar 16 ta flyuorografik komplekt yordamida amalga oshiriladi.

Orolbo'yi mintaqasida chaqaloqlarning sog'lom tug'ilishi, normal o'sishi, rivojlanish bosqichini nazorat qilish maqsadida zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan ona va bola skrining markazining dasturi aholi genofondini asrashga xizmat qiladi. Shuningdek, kelgusida turli kasalliklarning oldini olishga mo'ljallangan maxsus dastur ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Ayni paytda, O'zbekiston ekologik partyaning asosiy e'tibori ana shunday chora – tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Orol hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib turibdi. Uni hal etish bir osmon ostida havodan nafas olayotgan barcha xalqlarning manfaatlariga mos, mushtarak vazifadir.

Atrof-muhitni xalqaro huquqda muhofaza qilish prinsiplari haqida fikr yuritilganda, shuni ta'kidlash kerakki, bu prinsiplar tagida xalqaro miqyosida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha normalar, shu sohadagi huquqni muhofaza qilish davlatlarning hamkorligi

va boshqalar muhim rol o'ynaydi. Bu prinsiplar orqali biz xalqaro normalarni qanday biz uchun ahamiyatli ekanligini ko'ramiz. Prinsiplar butun bir normaning maqsad va mazmunini ochib beradi. Bu xalqaro huquq va uning normalariga bog'liqdir¹. Bu prinsiplar atrof – muhitni muhofaza qilish borasidagi hamkorlikni qanday tashkil etilayotganligidan darak beradi. Xalqaro huquq normasi o'zida umumiylar xarakterni mujassamlantiradi, ya'ni maxsus normalar mazmundan kelib chiqadi

Bugun xalqaro tajriba va normalardan kelib chiqib oily ta'lif tizimida, xususan O'zbekiston Milliy universitetida "Ekologiya huquqi" fani o'qitilmoqda, bundan ko'zlangan maqsad, ekologik hayot muammolarini imkon qadar hal etish va talaba yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat uchun huquqiy kurashish va huquq normalari asosida tartibga solish haqida boshlang'ich va umumiylar ko'nikmalar hosil qilishdir.

Insoniyatni rivojlanishi davlatlarning bir yo'nalishda va o'zaro yakdillikda atrof – muhitga munosabatda bo'lishga bog'liq. Davlatlarning bu boradagi kelishuvi hayotda sof dillik bilan bajarilishga bog'liqdir. Shunday qilib, xalqaro shartnoma bu munosabatni tartibga soluvchi eng asosiy qoidalarni, subyektlarni faoliyat doirasini, majburiyatlar bajarilishi ustidan nazorat olib borish mexanizmini belgilaydi. BMTning atrof-muhit boyicha Dasturining ma'lumotlari bo'yicha (YuNEP) ko'ra, hozirgi vaqta bu sohada 152 ta ko'p tomonlama shartnoma ro'yxatga olingan³¹. «Hozirgi atrof – muhitni muhofaza qilish borasidagi xalqaro huquqiy munosabatlar shartnomaviy yo'nalishda rivojlanishi lozim. Atrof-muhitni xalqaro huquqiy muhofaza qilish borasidagi norma yaratuvchiligi asosan davlatlarning tabiiy obyektlarni insonlar uchun faoliyat yuritishi bilan bog'liqdir»³². Hozirgi sharnomalar umumiylar xaraktyerli bo'lib, o'zida texnik xusutsiyatni birlashtirada hamda ma'lum bir majburiyatni bajarilishini ta'minlaydi. Xalqaro shartnoma atrof – kmuhitdan oqilona foydalanishni tartibga soladigan eng muhim manba hisoblanadi. Xalqaro huquqshunos S.V.Molodsov yozishicha «Hozirgi xalqaro amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, manfaatdor davlatlarning o'zoro kelishuvi ochiq dengizda baliq ovlashni tartibga soluvchi yagona norma bo'lib hisoblanmoqda». Xalqaro suv huquqida yangi izlanishlardan samarali foydalanish shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro shartnomalarga suvdan samarali foydalanish masalasini kiritilishi suvni turli zararli chiqidlar bilan ifloslanishini oldini oladi. Bu o'z navbatida ikki tomonlama, ko'p tomonlama, umumiylar va maxsus shartnomalarda qanday o'z ifodasini topganiga bog'liq

¹ Biryukov.N.P. Xalqaro huquq. – M., 1999. -C. 327-328

² Чирварин Б. Tabiatni muxofaza qilish xalqaro shartnimasi. -M., 1989. -C. 33-55

³ Molodtsov.D. Ochiq dengizlarning xalqaro huquqiy rejimlari. -M., 1980. -C. 194

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qishloq xo'jalik huquqi; yer, suv, o'rmon va kon huquqi, ekologiya huquqi yo'nalishi magistratura talabalarilari uchun o'quv qo'llanma. –T.: TDYI nashriyoti, 2009. 112 bet
2. Kenjaev R.X., Safarov J.I. Ekologiya. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.B.Usmonov. – Toshkent: TDYI nashriyoti, 2009. – 253 bet.
3. Karimov.I.A. O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida: "O'zbekiston" nashriyoti 2011-yil.
4. Turnyer M. G. Gardner R. H. Quantative methods in landscape ecology – Germani. Springer, 1991. – 536 s.
5. Property Rights in a Social and Ecological Context. – Washington.: U. S. A. , 1995. – 206 s
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining — O'zbekiston Respublikasida davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarori 31.12.2001. № 491. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent: 2001. 22-24-son.